

TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISH XUSUSIYATLARI

Uzoqova Marjona Sherali qizi

O'zDJTU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Abdusamadov Zafar Nurmatoevich

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti dekani

Annotatsiya: O'zbekiston va boshqa chet davlatlari o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlar va xalqaro bag'rikenglik tufayli, hozirgi kunda O'zbekiston fuqarolari orasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bir tilni o'rganishda, u qaysi til bo'lismidan qat'iy nazar uni to'rt muhim yonalishlarga bo'lib o'rganamiz. Demak, ular: tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish. Manashu to'rt yo'nalishda o'rjanilgan har qanday til, uni mukammalroq bilish imkonini beradi. Quyida ularning hammasiga birma-bir to'xtalib o'tamiz.

Tinglab tushunish. Agar biz tinglab tushunish haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu qism til o'rganilishining eng qiyin qismi deb aytishimiz mumkin. Buning asosiy sababi til o'rganuvchilari ko'pincha kitoblar va matnlar orqali uni o'rganishga harakat qilishadi. Bu ularning matnlarga bog'lanib qolishlariga sabab bo'ladi. Shuning natijasida, og'zaki nutqni tushunish qiyin. Xorijiy tillarni o'rganish endi rivojlana boshlagan davrlarda, tilni o'rganish aspektlari sifatida lug'at yodlash va garammatika o'rganish takomillashgan. Keyinchalik chet tillarini o'rganishda faqat bulargina yetarli emasligiga tushunib yetildi. Bunga misol qilib, ko'plab lingafon xonalarning tashkil etilyotganligini aytish mumkin. Tinglab tushunish natijasida til o'rganuvchi o'zida chet tilida gapirilayotgan nutq mazmunini tushunish qobiliyatini o'stira boradi. Har bir til o'rganuvchi birinchi navbatda o'sha tildagi audiolar va boshqa bir qator vizual kontentlarni eshitishga moyil. Negaki o'rjanilayotgan til haqidagi ilk ma'lumotlarni biz o'sha tildagi musiqalar, vedio filmlar va ovozli xabarlarni eshitish orqali olamiz. Ularni eshitish orqali nafaqat o'zimizda tinglab tushunish qobiliyatini o'stira olamiz, balki fikrimizni o'rgangan tilimizda boshqalarga to'g'ri yetqazib berish xususiyati ham bizda paydo bo'ladi. Tinglab tushunish qismining ham o'ziga yarasha o'rganilishi zarur va murakkab bo'lgan jabhalari mavjud. Ya'ni eshitilayotgan audio ichidan kalit so'zlarni aniqlay olish, gapning umumiyligini mazmunini tushunish. So'zlovchi intonatsiyasi ya'ni ravonligiga e'tibor berish va ularga chalg'ib qolmaslik. Ikkinchi darajali gaplarni hayolimizda tarjima qilishga va tushunishga harakat qilish orqali vaqt sarflab, gapning asosiy ma'no mazmunini anglay olmaslik. Quyida xorijiy til yo'nalishida o'qiydigan talabalar o'rtasida o'tkazilgan tajriba natijalari jadvalini ko'rib o'tamiz.

Nº	Talabal ar	Til bilish	Umum iy soni	To'g 'ri topilgan	Xat o topilgan	Xato javoblarni ng

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

		darajala ri		savollar soni	savollar soni	logikaviy to'g'ri kelishi
1	1- talaba	B1	10	5	5	5/2
2	2- talaba	B1	10	4	6	6/5
3	3- talaba	B2	10	8	2	2/2
4	4- talaba	B2	10	10	-	-
5	5- talaba	C1	10	10	-	-

Yuqoridagi jadvalda Ingliz tilining tishlab tushunish yo'nalishida tayyorlangan B2 darajadagi "Bo'sh o'rirlarni to'ldirish" topshirig'i darjasini turli xil bo'lgan talabalar orasida bajartirilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, darjasini berilgan topshiriq darajasidan past bo'lgan talabalar topshiriqni 40% va 50% ini to'g'ri bajara olishgan. Darjasini teng talabalar esa 80% va 100% ini to'g'ri bajarishgan. Lekin logikaviy jihatdan qaraydigan bo'lsak, talabalarning ko'pchiligi kam xatoliklarga yo'l qo'yishgan. Demak tinglab tushunish qismini biz hech hech ikkilanmasdan, logika bilan bog'lab o'rganish kerak deya olamiz.

•O'qib tushunish. Aslida o'qib tushunish bir matn mazmunini to'laqonli tushuna olish, unga bog'liq bo'lgan savollarga javob berish, u bilan bog'liq ma'lumotlarni amaliy va nazariy tahlil qila olish ko'nikmasidir. O'rganuvchi biror bir matnni tahlil qilish davomida, o'zi uchun noaniq bo'lgan so'zlarni tahlil qiladi, ma'nosini o'rganadi va eslab qoladi. Bu nafaqat matn, balki o'rganilayotgan tilga tegishli bo'lgan biror bir badiiy asar yoki kitob ham bo'lishi mumkin. Chet tillarini o'qib tushuna boshlagan o'quvchi, xorijiy tilde yozilgan adabiyotlarni o'qiydi va ulardan ko'proq ma'lumotlar olish imkonini qo'lga kiritadi. Boshqa tilde yozilgan biror-bir asarni o'qib tushunishimiz uchun biz so'zlarni muqobil tarjimasini topa olish, grammatik jihatdan so'zlarni to'g'ri tarjima qila olish, matn tarkibida ishlatalgan belgilarni o'qiy olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishimiz kerak. O'qish davomida yozuvchining fikrini o'qiy olishimiz lozim. O'qib tushunish jarayoni nafaqat talabalar uchun, balki barcha til o'rganuvchilari uchun eng murakkab fiziologik jarayon hisoblanadi. Chunki, inson o'qish jarayonida barcha mexanik harakatlarni to'xtatadi va asosiy e'tiborni ko'zlariga va aqliga beradi. O'qishda diqqat uni tushunish uchun juda ham muhim.

•Yozish ko'nikmasi. Chet tillari o'rganilayotgan vaqtida, yozish amaliyotiga o'qib va tinglab tushunishga nisbatan kamroq e'tibor qaratiladi. Bunga misol tariqasida til o'rganish kitoblaridagi mashqlarni aytish o'rini. Lekin, yozish

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

ko'nikmalarini rivojlantirish, til o'rganuvchilariga shu tilning marfalogik, sintaktik, orfoepik va so'zlarni mazmunli qo'llay olishini o'rgatadi. Ularning shu yo'naliishda bo'lgan qobiliyatlarini oshirishlarida katta va muhim ro'l o'ynaydi. Insonlar og'zaki nutq davomida, o'z nutqlarida turli xildagi bo'yoqkor chet so'zlaridan foydalana olishadi. Lekin yozish ko'nikmasida bu kabi so'zlarning o'z muqobillari mavjud. Til o'rganuvchi buni o'z yozma ishida qo'llaydi va o'rganadi. Quyida chet tillarini o'rganayotgan talabalarning yozishda yo'l qo'yadigan xatolari haqida gapirib o'tamiz.

- Yozishda so'zlarda imloviy xatolarga yo'l qo'yish.
- O'quvchi tomonidan yozilgan chet tilidagi gaplarning uzayib ketishi va shu orqali mazmunning yo'qolishi.
 - O'rganilayotgan til imlo qoidalariga rioxalash qilmaslik.
 - Grammatik strukturalardan noto'g'ri foydalanish.
 - Yozilgan artikldagi mazmunsizlik.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun, albatta, talabadan o'z ustida tinmay ishlash talab qilinadi. Xorijiy tilde yozish ko'nikmasinii rivojlantirish, talabalarga ishga kirgunlaricha yoki biror bir vaziyatni to'laqonli yoritib borishlari uchun ancha foydali bo'ladi.

•Gapirish ko'nikmasi. Yuqorida takidlangan o'qib tushunish, yozish, grammatika va lug'at yodlash amaliyotlarini birlashtirgan holda, bu bilimlarni nutqda qo'llash qobiliyati demakdir. Talaba nafaqat xorijiy tilda gapira olishi, balki uni amaliyotda qo'llash, o'z fikrlarini chet tilida ommaga taqdim eta olish imkoniyatlariga ega bo'ladi.